

Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna

Namangan davlat pedagogika instituti professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc).
maxbubaxonsobirova@gmail.com

QADRIYAT – INSONNI RAG‘BATLANTIRUVCHI KUCH

Annotatsiya: maqolada jamiyatda milliy qadriyatlar uyg‘unligi qaror topishi, qadriyat haqida tadqiqotchilar fikri, islom qadriyatlari, sharqona tarbiya asosida milliy qadriyatning singdirilishi, jamiyat va inson hayotida qadriyatlar muhim o‘rin egallagani, qadriyat har bir shaxsga tegishliligi va uni tarbiyalashi masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: qadriyat, milliy qadriyat, qadriyatlar uyg‘unligi, jamiyat va inson hayotida qadriyat, sharqona tarbiya, ta’lim va tarbiyada qadriyat.

ЦЕННОСТЬ — МОТИВИРУЮЩАЯ СИЛА ЧЕЛОВЕКА

Аннотация: в статье освещены вопросы поиска гармонии национальных ценностей в обществе, мнение исследователей о ценностях, исламских ценностях, привитии национальных ценностей на основе восточного образования, ценностях, занимающих важное место в обществе и жизнь человека, ценности, принадлежащие каждому человеку и его воспитание.

Ключевые слова: ценность, национальная ценность, гармония ценностей, ценность в обществе и жизни человека, восточное образование, ценность в образовании и обучении.

VALUE IS HUMAN MOTIVATING FORCE

Abstract: the article covers the issues of finding a harmony of national values in society, the opinion of researchers about values, Islamic values, inculcation of national values on the basis of oriental education, values occupying an important place in society and human life, values belonging to each person and their upbringing.

Keywords: value, national value, harmony of values, value in society and human life, oriental education, value in education and training.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, jamiyat hayotining barcha sohalarida ma’naviy omillar ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan. Bu jarayonda ijtimoiy munosabatlarning demokratik va milliy qadriyatlar asosida qaror topishi natijasida, bir tomondan, jamiyat taraqqiyotiga xos ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma’naviy paradigmalari shakllanmoqda, boshqa tomondan, jamiyatda ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida yangi munosabatlar, milliy qadriyatlar uyg‘unligi qaror topmoqda.

Jamiyatda yuzaga kelgan global ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlar natijasida insonlar dunyoqarashining o‘sishi hamda odamlarning ma’lumotlilik darajasining takomili bu uyg‘unlikni yanada kuchaytirmoqda.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilining 2020-yilda chop etilgan izohli lug‘atida qadriyat – voqelikda muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha deb izoh beriladi[1].

Xorij mamlakat olimlaridan tadqiqotchi Tatyana Evsyukova fikricha, qadriyatlar ma’lum xalq madaniyatini tavsiflovchi narsaga (*obyekt, hodisa, voqea, tushuncha, madaniy me’yor va boshq.*) munosabati bilan belgilanadi. Olam manzarasining qadriyatlari ierarxik tizimni tashkil qiladi. Madaniy qadriyatlarining quyidagi ko‘rinishlarini e’tirof etadi: *san’at va adabiyot, fan, din, odob-axloq, urf-odatlar, an’analar, xulq-atvor, fikrlash usullari, tushunish va talqin qilish, nutq xatti-harakatlarining stereotiplari va boshqalarni ifodalovchi artefaktlar* [2]. Tadqiqotchi Shalom H.Schwartz qadriyatlar

ta'rifiga ijtimoiy jihatdan yondashadi va "Qadriyatlar (masalan, *muvaqqafiyat, adolat, erkinlik, ijtimoiy tartib, urf-odatlar*) – bu harakatlarni rag'batlantiruvchi, tanlangan yo'llarni ifoda etuvchi va asoslovchi ijtimoiy ma'qullangan maqsadlar ifodasidir" deb ta'riflaydi[3]. Hiroyuki Nemotoning ta'kidlashicha, ba'zi jamiyatlarda til aloqa va o'zini ifoda etish vositasi bo'libgina qolmasdan, balki etnik o'ziga xoslikni namoyon etuvchi ramz va "haqiqiy" guruhga a'zo bo'lishning asosiy sharti sifatida gavdalanuvchi qadriyatdir[4]. Barbara Rodziewiczning fikricha, qadriyatlar "odamlarning harakatlarini rag'batlantiruvchi "bosh g'oyalar" vazifasini bajaradigan tushunchalar, holatlar va vaziyatlar, munosabat va xatti-harakatlardir"[5]. Natalia Zerkina qadriyatlarni inson faoliyatining *ideallari va ustuvor yo'nalishlari* sifatida izohlar ekan, ularni *shaxsning ichki dunyosini, milliy va madaniy dunyoqarashning tilda mustahkamlangan va aks ettirilgan o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflaydi* deya ta'riflaydi. Shuningdek, olima, tilni "asosiy qadriyatlar tizimining ko'zgusi" sifatida tushunish, til nafaqat aks ettiradi, balki shaxsni shakllantirini va unga ta'sir qilishini ta'kidlaydi"[6].

Respublikamiz olimlaridan Malika Inomova ilmiy izlanishlarida «milliy axloq milliy tarbiya natijasida tarkib topishini»[7] ta'kidlaydi. Oila va ta'lim-tarbiya masalalari bo'yicha izlanishlar olib borgan olima Oynisa Musurmonova «O'zbeklar qadimdan to'y turlariga boy xalq. Sunnat to'yi, nikoh to'yi, soch to'yi, tish to'yi, birinchi qadam to'yi, fotiha to'yi, askar to'yi, uy to'yi, muchal to'yi, ellik va undan ortiq yoshlarni nishonlash to'ylari, ramazon va qurbon hayitlari va hokazolarning har biri, to'ygacha, to'y davomida va to'ydan so'ng o'tkaziladigan rasm-rusumlar bilan tantanali nishonlanishini»[8] izohlaydi. Ijtimoiy fanlar, xususan, tilshunoslikda *asosiy (bazaviy) qadriyatlar* tushunchasi ham mavjud bo'lib, ularning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati tadqiqotchi M.Sobirova izlanishlarida yoritiladi[9,10,11,12,13,14] hamda ta'lim-tarbiyadagi antropotsentrik yondashuv qadriyatlarni singdirishda muhim omil bo'la olishi izohlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada jamiyatda milliy qadriyatlar uyg'unligi qaror topishi, qadriyat haqida tadqiqotchilar fikri, islom qadriyatlari, sharqona tarbiya asosida milliy qadriyatning singdirilishi, jamiyat va inson hayotida qadriyatlar muhim o'rin egallagani, qadriyat har bir shaxsga tegishliligi va uni tarbiyalashi masalalari yoritiladi.

Tahlillar va natijalar. Qadriyatlar guruh madaniyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, guruh va uning a'zosining ramzi bo'lgan qadriyat, insonni rag'batlantiruvchi kuch sifatida talqin etilishini ko'rsatmoqda.

Ta'lim va tarbiyaning maqsadi – komil insonni etishtirishdir. Buni amalga oshirish jismoniy, iqtisodiy, mehnat, siyosiy, huquqiy, g'oyaviy, aqliy, ruhiy, jinsiy, axloqiy, estetik, diniy tarbiyani o'z ichiga oladi. Jismoniy, ma'naviy-axloqiy va ruhiy qonuniyatlarni yaxshi bilmay turib, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi va shaxs mana shular asosida rivojlanadi. Bu qonunlarning tabiiy va ijtimoiy sabablarini tushunmaslik kutilgan maqsadning yuzaga chiqmasligiga sabab bo'ladi.

Ma'naviyat axloq-odob va ma'rifat – madaniy merosning tarkibiy qismlari bo'lib, ularda xalqimizning daholik qudrati, dunyoqarashi, ma'naviy-ruhiy qiyofasi, ezigulik, yaxshilik haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Madaniyat, ma'naviyat, axloq, ma'rifat, meros g'oyat keng qamrovli tushunchalar bo'lib, unda tarixan tarkib topgan muayyan xalqning ko'p asrlar davomida to'plagan moddiy va ma'naviy boyliklari, tili, so'z san'ati, qadriyatlari, boy tarixi, tarixiy yodgorliklari, an'ana va rasm-rusumlari umumlashgan, mujassamlashgan bo'ladi.

Umuminsoniy axloqiy madaniyat tamoyillaridan yana biri – diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalangan foziluallomalarimiz hatto o'zlariga ustoz tanlashda bo'lajak ustozning boshqa millatga mansub odam va ajnabiy oilavakili ekanligidan cho'chimaganlar. Ular ma'naviy kamolotga erishishni bosh maqsad qilib olganlar. Masalan, donishmand bobomiz Forobiy mantiq ilmini masihiy olim Yuhanno ibn Xiylandan, grek tilini xristian Abu Bashar Mattadan o'rgangan. Imom al-Buxoriy esa o'ziga quyidagi 4 qoida asosida ustoz tanlagan:

- 1) adolat – odillikka qarab;
- 2) zabt – mukammal yod bilganiga qarab;
- 3) rivoyatining tozaligiga qarab;
- 4) e'tiqodining sog'lomligiga qarab.

Ko'rinib turibdiki, al-Buxoriy ustozlarini, asosan, insonparvarligi, hadislarini bilishi, bu sohada donishmand maqomida ekanligiga qarab tanlagan.

Islom qadriyatlarida eng katta hurmatga loyiq zot – ona deb ta'riflanishi ham bejiz emas. Ayol turmush qurib, oilali bo'lgach, u endi jamiyat kelajagiga daxldor shaxsga aylanadi.

Muhimi shundaki, onalarni ulug'lash, ularga izzat-ikrom ko'rsatish SHarqda badiiy asarlarda ham, xalq pedagogikasida ham, tarixiy-biografik manbalarda ham ko'p uchraydigan lavhalardan bo'lib, bu hayotiy dalillar davrlar osha G'arbga kuchli ta'sir ko'rsatib kelgani shubhasizdir.

Turkiy xalqlar oilasiga xos azaliy urf-odat va ilmiy-ma'naviy qadriyatlar haqida tasavvufchi olim Shimmiel xonim juda xarakterli dalillar topa olgan: «Bironta pokistoniy, turkiy, arabiy yoki forsiy oilaga borib qolgan evropalik mehmon uy bekasi, ya'ni onaning savodli yoki savodsiz ekanligidan qat'i nazar, oilaning butun yumushlarida rahbarlik qilishini, farzandlar esa, ministr yoki professorligiga qaramasdan, ona qarshisida qo'l qovushtirib turishini ko'rib, rosa hayratga tushadi. Sof dunyoviy ishlar ham xuddi shu yo'sinda amalga oshiriladi.

Turk shohlari yoki Hindistondagi Buyuk Boburiylar oilalariga nazar tashlasangiz, shohning yoki valiahdshahzodaning onalari ham valiahdlardan ko'ra ko'proq hokimiyatga ega bo'lganligining shohidi bo'lasiz. Shoh yoki valiahd shahzodalar har doim onalari bilan bamaslahat ish yuritganlar. Butun-butun mamlakatlarni so'rab turgan hukmdorlar ham ona qarshisida bosh egishgan, saroydagi va mamlakatdagi ko'pgina ishlar ona izmi bilan amalga oshirilgan».

Fikrimiz dalili sifatida "Boburnoma"ga murojaat qilamiz.

«Boburnoma»da Bobur o'z sulolasiga mansub ayollar (masalan, onasi, opasi, singillari...) ning nasl-nasabini, shajarasini bayon qiladi, boshqalarni tasvirlaganda ham ahli ayolini erkaklar bilan yonma-yon tilga oladi.

Onalarga bo'lgan bunday ulug' ehtirom oiladagi sharqona tarbiya, milliy qadriyatning singdirilishi natijasidir. Agar Bobur o'z otasi Umarshayh Mirzo tarafidan oilaga mensimay qarash, saroydagi malikalarni xo'rlashva kamsitish ruhida tarbiyalanganda edi, asarlarida tanish va notanish ayollarga bu qadar hurmat bajo keltirmagan bo'lar edi. Aksincha, Bobur va boburiylar sulolasi vakillari hayoti va ijodida ayollar, ayniqsa, onalar mavqei yuksak darajada tutib turilgan. Qiz uzatish, kelin tanlash, onalariga sadoqat va muhabbat, oilasiga ehtirom bobida ham ular boshqalarga o'rnak bo'lishgan, desak mubolag'a bo'lmas.

Onalarni bu qadar ulug'lash, ularning hurmat-izzatini to'vafotigaqadar va hatto vafotidan so'ng ham davom ettirish an'anasi G'arbda darhol ko'zga tashlanmaydi. Biroq, bu xorijda onalar hurmatga loyiq ko'rilmagan, degan ma'noni anglatmaydi. Oilasi, farzandlariga sadoqatli, pokdomon, imon-insofli ayol hamma joyda, hamma zamonlardakatta hurmatga munosib deb baholangan.

Biz, odatda, oilaga ta'rif berar ekanmiz, uni doimo jamiyat, yurt, Vatan so'zlari bilan yonma-yon ishlatamiz. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi.

O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'ni-qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa, eng oliy darajada ma'naviy va milliy qadriyatdir.

Jamiyat va inson hayotida qadriyatlar muhim o'rin egallagani sababli mazkur tushuncha turli fanlar, jumladan, sotsiologiya, falsafa, antropologiya, iqtisodiyot, huquq, tilshunoslik va boshqa fanlarning o'rganish ob'ekti bo'lgan. Jumladan, tilshunoslikda asosan, lingvokulturologik va lingvoaksiologik kategoriya sifatida o'rganiladi. Shu ma'noda, *lingvokulturologik* nuqtai nazardan, olam manzarasining qadriyatlari *maqsadli tushunchalar (intentional concepts)* sifatida qaraladi, deb e'tirof etiladi.

Qadriyatlar guruh madaniyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, guruh va uning a'zosining ramzi bo'lgan qadriyat sifatida talqin etiladi. Asosiy qadriyatlar ijtimoiy guruhlarni o'ziga xos, etnik, diniy, ilmiy yoki madaniy jamoalar sifatida aniqlashga imkon beradi. Ma'lum xalq madaniyatining bir elementi, mazkur guruh uchun eng muhim va ajralib turadigan jihat yoki ularning guruh sifatida o'ziga xosligini belgilovchi omil bo'lsa, ushbu element guruh uchun asosiy qadriyat sanaladi.

Qadriyatlar insonlarning kundalik ish-harakatlarini, shaxsiy fikr va xatti-harakatlarini belgilovchi, ularning qaror qabul qilishlarini yo'naltiruvchi mezondir. Qadriyatlar o'z tuzilishi, o'lehov shkalasiga ega bo'lib, insonlar xatti-harakatlari bilan o'zaro munosabatda bo'lishi mumkin. Chunki qadriyatlar umummadaniy va umuminsoniy hodisa bo'lib, ular inson yashayotgan vaqtinchalik, madaniy va ijtimoiy doiradan qat'i nazar, har bir shaxsga tegishli bo'ladi, ular inson mavjudligining mohiyatini tashkil qiladi. Milliy o'zbekona axloqiy urf-odatlar – insonlarning munosabatlari, yurish-turishlari, to'y-tomoshalari, bayramlarida o'z aksini topadi.

Qadriyatlar insonning ichki dunyosi, milliy va madaniy dunyoqarashining ma'lum jihatlarini namoyon qilishi mumkin. Bunda u insonning ichki dunyosi, milliy va madaniy dunyoqarashini tilda aks ettirishda tilga manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosalar. Demak, olamning qadriyatlar manzarasi tilda aks etar ekan, ushbu hodisa tilda sistema sifatida verballashadi, desak, xato bo'lmaydi. Qadriyatlar insonning kunlik xatti-harakatlari: fikrlash tarzi, ish-harakati, qaror qabul qilishi kabi faoliyatlariga ta'sir qiluvchi ijtimoiy norma yoki mezon bo'lib, o'z tarkibiy tuzilishi, o'leov parametrlari va insonlar xatti-harakati bilan chambarchas bog'liqlik xususiyatiga ega tushunchadir. Qadriyatlar xalqlararo farqlanadi va mazkur xalqning ma'lum xususiyatini belgilashda yordam beradi.

Biz yoshlarga til o'rgatish jarayonida o'rganilayotgan til egasi bo'lgan xalqning milliy-urf-odatlarini hamda qadriyatlarini bilishimiz dunyoqarashimiz kengayishiga ta'sir qiladi. O'rganilayotgan til "asosiy qadriyatlar tizimining ko'zgusi" sifatida talqin qilinadi ekan, u nafaqat xalq qadriyatlarini aks ettiradi, balki shaxsga ta'sir qiladi, uni shakllantiradi va rivojlantiradi. Qadriyat har bir shaxsga tegishli bo'lib, uni tarbiyalaydi va inson mavjudligini rag'batlantiruvchi asosiy kuch, uning faoliyatini boshqaruvchi bosh g'oya hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston, 2020 yil, 5-jild, – B. 207.
2. Tatyana V.Evsyukova et al. Axiological World Picture of the Virtual Language Personality in Blog-Discourse Space// European Research Studies Journal Volume XX, Issue 3B, 2017, P. 342-354.
3. Shalom H. Schwartz. A Theory of Cultural Values and Some Implications for Work// Applied Psychology: An International Review, 1999, 48 (1), P. 23–47.
4. Hiroyuki Nemoto. Smolicz's Theory of Core Values and Language Maintenance and Shift in Dutch Immigrants in Australia//Foreign Language Institute Kanazawa University. Studies of Language and Culture. Volume 15, March 2011, P. 111-126.
5. Barbara Rodziewicz. Values, Their Hierarchy and Understanding Among Polish, Russian, and German Students// Ethnolinguistics 28, 2017, P. 141-152.
6. Natalia Zerkina, Yekaterina Lomakin, Natalia Kostina. Axiological linguistics and foreign language teaching//Procedia - Social and Behavioral Sciences, 2015. – P. 254 - 260.
7. Inomova M.O. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari. Ped.fanl.doktori... dis./ Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. – Toshkent, 1998. 279-bet.
8. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – Toshkent: O'qituvchi, 1999, 129-b.
9. Sobirova, M. (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
10. Sobirova, M. & Boboxonova, D. (2022).Duygularının Şairi: Rauf Parfi. <https://onedrive.live.com/?authkey=%21APRcbvoBM8%5F6%2Dlk&cid=0C48D7EEA09FC4A4&id=C48D7EEA09FC4A4%21334&parId=C48D7EEA09FC4A4%21111&o=OneUp>
11. Sobirova, M. (2021). The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp.z o.o."iScience", 2021. Part 3 – 234 p. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9634%20-%203%20%28web%29.pdf> str. 98-105
12. Sobirova, M. (2020). Assimilation of human qualities during the process of working with text. International Scientific Journal "Theoretical & Applied Science" SOI: 1.1/ TAS (<http://t-science.org/arxiv> DOI/2020/12-92.html) (DOI:10.15863/TAS Published: 18.12.2020.
13. Sobirova, M. (2020). The role of the family in the development of the integration process in science and education. "A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal" (<https://journalnx.com/papers/20151362-the-integration-process.pdf>) impact faktorga ega bo'lgan DOI raqamli jurnali. 2020 y. 18-19 uyun. – B. 1161-1166.
14. Sobirova M. Badiiy asar tahlili asosida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash. "Zamonaviy o'zbek adabiyoti rivojida Usmon Nosir ijodiy merosining o'rni va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Namangan, 2022.12.11. – B.407-414.